

"HAYRAT UL ABROR" DOSTONIDA IFODALANGAN BOSH G'OYA VA UNING KITOBXONGA TA'SIRI

Bozorboyeva Shahrizoda Ilhomjon qizi

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali
Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10159800>

Annotatsiya: Ushbu maqolada pand-nasihatlarining mazmuni va kitobxonga ta'siri ochib berilgan. Insoniy fazilatlar qanday bo'lishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: didaktik adabiyot, pand-nasihat, ma'rifat, falsafiy, mumtoz adabiyot, majoviy, barkamol shaxs, maqolat, komil shaxs, jamlayi olam.

Kirish: Mumtoz adabiyotlarga nazar solinadigan bo'lsa, didaktik ruhida yozilgan betakror asarlar yetarlicha o'rin olgan. Didaktik asar-badiiy ifodalangan pand-nasihat tarzidagi adabiyot. Bunda axloqiy-ta'limiy, ilmiy-falsafiy, diniy bilimlar va g'oyalar badiiy talqin qilinadi. Didaktik adabiyotning ildizi xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi. Ilk namunalarni Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'ati-at turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarlarida yaqqol namoyasini ko'rishimiz mumkin. O'rta asrlarga kelib esa, Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" va "Mahbul ul-qulub" asarlarida bu g'oyalar yanada takomillashtirilgan. "Mahbul ul-qulub" asarida har bir inson egallashi mumkin bo'lgan go'zal xulq, yuksak ma'naviyat mezonlari haqida atroflicha ma'lumot beradi. Shuningdek, bu asar hali yetarli hayotiy tajribaga ega bo'lmagan insonlarga, ko'proq yoshlarga atab yozilgan. Toki, deydi Navoiy, ular jamiyat ichidagi barcha toifa va tabaqalarga uchraydigan fazilat va qusurlardan ogoh bo'lsinlar, kimga erishish masalasida adashmasinlar. Yana shuni aytib o'tishimiz mumkinki, o'zbek mumtoz didaktik adabiyotining yetuklik cho'qqisiga chiqqan "Hayrat ul-abror" dostoni. Bu asar yaxshi insonlarni hayratlanishiga sababchi bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Navoiy olamning hikmati va gultoji, koinotning mohiyati inson ekanligini alohida iftixor va shukronalik bilan qayd qilib o'tadi:

Ganjing aro naqd farovon edi,

Lek boridin g'azar inson edi.

Asosiy qism. Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" dostonining bosh g'oyasi kitobxonni komil shaxs sifatida tarbiyalash va uni yetuklikka erishish yo'lida ko'prik vazifasini bajara oladigan darajada mukammal qilib yatardi. Asarda ijodkorning barkamol shaxs haqidagi o'ylari maqolatlardagi hikoyatlarda nasihat tarzida yozilib yorqin inti'kosini topgan va yana maqolatlarda ilgari surilgan tayanch g'oyalarni kitobxon shuuriga yanada teranroq ta'sir etishi, uning mavzu bilan mukammalroq tanishishga imkon yaratgan.

Birinchi maqolat "Shayx Boyazid Bistomiy va uning muridi haqidagi hikoyat" bo'lib Shayx Boyazid Bistomiy va uning muridi haqidagi voqealar keltiriladi. Hikoyatda diniy mazmundan tashqari tasavvufiy qarashlar ham mavjud bo'lib, bunda tariqatdagi xavf maqomi haqida ham so'z boradi deb aytish mumkin. N. Komilovning "Tasavvuf" kitobida yozilishicha, xavf tariqatning 6-qomi bo'lib, bunda soliqning nafs makridan qo'rqishi, shayton nayrangining ko'ngliga xavf solishi nazarda tutiladi. Nafs shunday kuchli dushmanki, soliq tariqatdagi tavba, vara', zuhd, farq, sabr kabi maqomlarni egallagan bo'lishiga qaramay, nafsning iymonga daxl qilishi mumkinligidan doim xavfda bo'ladi.

Ikkinchi maqolat esa Islom bobida bo'lib, Ibrohim Adham haqida hikoyat keltirilgan. Bu hikoyat orqali kitobxonga qalbda ham Ka'baga nisbatan muhabbat bo'lishi, chin tildan yolborishi, Yaratganicha o'tinch, umid bilan murojaat qilgan Robiya Adviya haqida bo'lib, uning shu amali uchun u Ka'baning oldiga emas Ka'ba uning oldiga boradi. Ibrohim Adham esa Ka'bani joyidan topolmaydi. U faqat shukronalik namozini o'qib kelgan edi. Robiya Adviya unga qarata shu misralarni keltirdi:

Senga samar berdi namoz-u riyo,

Menga samar berdi niyoz-u fano.

Shu tariqa buyuk shoir bobma-bob sultonlar zikri, rivoyi xirqapo'shlar va karam, olijjanoblik, saxovat haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirib o'tib, bu boblar mazmuniga mos hikmatli so'zlar va ibratli hikoyat, nasihatlarni keltirib o'tadi.

Oltinchi maqolat esa Odob haqida bo'lib, odobning har xil ko'rinishlari haqida so'z boradi. Ulardan biri- kulgu. Qahqahasi tufayli kaklik qattiq sayrab, bu xil kulgu uning boshiga xilma-xil balolar keltiradi. Odobli insonlar kulguga ko'p ham og'iz ochavermaydilar. Lekin hayo buluti qatrasiz ham bo'lmaydi. Qah-qaha hazil bilan yer bo'lsa, ikkovining qiyofasi qurbaqaning kuyi bilan sakrashini eslatadi. Yuziga soqol bo'ylab elni kuldirishga iltilgan odam o'z soqoliga o'zi kulgu keltiradi.

Odobning ham muhim shartlari shundaki, uning senga nisbatan yoshi, obro'-e'tibori, qandayligi hisobga olinishi kerak. Boshqalarning obro'yi senga pastroq bo'lsa ham, baland bo'lsa ham, ularga yaxshi muomalada bo'lish muhimdir. Eng muhim shartlaridan biri ota bilan ona ehtiromiga bajo qilmoqdir. Bu maqolatda Nushiravonning uyalgani hikoyat bo'lib keladi. U shahzoda bo'lib bir qizning ishq bilan notavon bo'ladi. O'z yoriga yetishish yo'lida og'ir mehnatlar qilib, oxiri uning visoliga muyassar bo'ladi. U uchrashishni maqsad qilib, joy tayyorlab ochiq suhbat qurishni xohlaydi. Yori tomon qo'l cho'zganida, ko'ziga qarab uyalib ketadi. Hayo qilib bu fikrdan qaytadi. Nashiravon Shahzodaning pok niyati, unga bo'lgan hayo xosiyati ediki, jamlai olamga uni shoh aylaydi, adlini olamga panoj ayladi.

Aysh, Navoiy necha dilkash durur

Lek adab birla hayo xushdurur.

Keyingi boblarda qanoat, vafo, ilm va olimlar haqidagi maqolalar dostonidan o'rin olgan bo'lib, bu mavzularning dolzarbligi, yosh-u qari uchun muhimligi haqida so'z boradi.

O'n uchinchi maqolat yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik haqida nasihatlar qilgan. Bunga alloma eng yaxshi ta'riflarni keltirib o'tadi. Unda yaxshilik ulashuvchi zotlarning asosiy belgilari: mehribonlik, ochiqko'ngillik, himmatbalandlik, saxiylik kabi insoniy fazilatlar haqida so'z yuritilib, bu xislatlarni o'zida tarbiyalamagan odam pastkash, nokas, g'iybatchi, birovning aybini qidirib, fosh qilishidan rohatlanadigan, hasadgo'y bo'lib qolishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Nafing agar xalqqa beshakdurur,

Bilki bu naf o'zunga ko'prakdurur.

Hazrati Ayub va o'g'ri haqida hikoyat. Ayub o'z uyiga o'g'rillika tushgan o'g'riga chiqish yo'lini ko'rsatadi. O'g'ri uni topolmayotgan edi. Bu holatdan yuzi qizarib, tavba qiladi. Bundan keyin u to'g'ri yo'lga kirib, bunday salbiy odatlardan voz kechadi.

O'ninchi maqolatda yosh- u qariga tanish, hammaning sevimli hikoyati keltiriladi. Bu maqolat rostlik, to'g'rilik haqida pand-nasihat qilinadi. Bundan "Sher va durroj" hikoyati joy olgan. Hikoyat ramziy usulda yozilgan. Hayvonlar orqali to'g'ri va egri inson qanday bo'lishini, yo'lg'onchining taqdiri qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini aks ettirgan.

Bir necha nasihatlar keltiriladi:

- kishining odati to'g'ri bo'lsa, falak unga har qancha teskarilik, qaysarlik qilganida ham qo'rqadigan joy bo'lmaydi.
- nay ovozi to'g'ri bo'lgani uchun ham odamlar uni tinglashni yoqtiradilar.
- chang asbobi qili to'g'ri ekan, nafis ovozlari chiqara beradi, salgina egri bo'lsa, soz chiqmaydi.
- nazari to'g'ri odam to'g'ri pokiza kishi bo'ladi kabilar keltirib o'tilgan.

Xulosa. Dostonda berilgan maqolat va hikoyatlar nafaqat o'tgan zamon uchun balki, hozirgi zamon uchun dolzarb mavzularni yoritib bergan. Mazmuni esa tasavvuf talimot g'oyalari va undan hosil bo'lgan orifona olam hukmron bo'lib, asosan, ko'ngil, iymon va axloq masalalari yetakchi o'rinda turadi. Asardagi hikoyatlar syujeti qisqa-qisqa shaklda bo'lib, e'tibor asosiy voqeani hozirjavoblik bilan qisqa va mazmunli bayon etgan. Hikoyatlar muhim timsol sifatida muayyan ijobiy g'oyani yoyish, ibrat bo'lishga xizmat qilgan. Asardagi pand-nasihatlar muhim va mavzulari dolzarb ekan, uni maktab darsliklarida ham o'quvchilarga moslab berilishi kerak. Shu sababli, "Tarbiya", "Ma'naviyat soatlari" kabi maktab darsliklari mavzulari mundarijasiga o'quvchining yoshiga mavzularni joylashtirish, yoki to'garaklar tashkil qilinishi joiz. Shunda unib-o'sayotgan yosh avlodni komil shaxs, barkamol avlod qilib o'stirish maqsadiga erishgan bo'ladi, albatta. Yosh avlodlar barkamollikka erishgan sari Yangi O'zbekiston ham ko'plab yutuqlarga erishadi. Komil inson g'oyasi necha davrlar o'tsa ham yashab kelmoqda va hali zamonlar o'tsa ham yashashda davom etadi. Chunki, insonning hayotda inson bo'lib yetishish maqsadi ham aynan o'sha komillik sari harakat qilishidir.

Kim o'qusa yo qilur ersa savod,
Ruhum agar qilsa duo birla shod...

References:

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil. 23469 bet.
2. A.Navoiy. Mahbub ul-qulub. Toshkent. "Sano-standard", 2018.- 192 bet.
3. Sirojiddinov Sh, Yusupova D, Davlatov O. "Navoiyshunoslik" - Toshkent: Akademy Nashr 2020.-576 bet.
4. Hojiahmedov.A., Rahmonov.V., Alisher Navoiy. "Xamsa". "Yangi asr avlodi", 2021-yil.-496 bet.